



DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KO'RGAZMALI QUROLLARNING AHAMIYATI

Ungarbayeva Ayman Davletbayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri 19-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rasmlar asosida o'quvchilarga dars o'tishning afzalliklari, bu usulning ta'lim jarayonidagi samaradorligi hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash, kuzatish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Rasmi materiallardan foydalanish orqali darsni jonlantirish, mavzuni tezroq va chuqurroq anglash, nutqni rivojlantirish hamda o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada rasm asosida o'qitishning zamonaviy metodlari, axborot texnologiyalarini qo'llash yo'llari va interaktiv ta'lim vositalarining o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: rasm asosida o'qitish, vizual ta'lim, ijodiy fikrlash, motivatsiya, interfaol metod, ko'rgazmalilik, kommunikativ ko'nikma.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning samaradorligini oshirish uchun vizual (ko'rgazmali) vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rasmlar asosida dars o'tish o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga, ularning diqqatini jamlashiga va mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Rasmlar orqali o'quvchi mavzuni ko'z oldiga keltira oladi, tasavvur qilish jarayoni faollashadi, bu esa bilimning mustahkamlanishiga olib keladi.

Asosiy qism.1. Rasmlar asosida o'qitishning pedagogik ahamiyati

Rasm — bu o'quvchini mavzu bilan hissiy jihatdan bog'laydigan vosita. Ko'rgazmali material orqali bola mavzuni "ko'radi", bu esa nafaqat eshitish, balki ko'rish xotirasini ham faollashtiradi. Shu sababli rasm asosida o'tilgan darslar odatdagi so'zli izohdan ko'ra ancha samarali bo'ladi.

2. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish

Rasmlar asosida ishlash o'quvchini mustaqil izlanishga, tahlil qilishga, o'z fikrini ifodalashga o'rgatadi. Masalan, rasm asosida hikoya tuzish, dialog yaratish, voqeani davom ettirish kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning til boyligini oshiradi va ijodiy tafakkurini kengaytiradi.

3. Motivatsiya va faollikni oshirish

Rasmi darslar o'quvchini darsga qiziqtiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu usul eng samarali vositalardan biridir. Bola rasm orqali o'rganayotgan mavzuga bevosita kirib boradi, bu esa o'qish jarayonini o'yin bilan uyg'unlashtiradi.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish



Hozirgi kunda elektron darsliklar, multimediali taqdimotlar va interaktiv doskalar yordamida rasm asosida o'qitish yanada qulay bo'lib bormoqda. O'qituvchi slayd, video yoki animatsiyalar orqali o'quvchining e'tiborini to'liq jalb etishi mumkin.

Misol uchun quyidagicha rasmlar orqali turli xil topshiriqlar berish mumkin.



1. Ushbu rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Sizningcha rasmdagi insonlar baxtlimi?
3. Siz bunday holatda qanday yo'l tutardingiz?
4. Oilaviy munosabatlarning ahamiyati?
5. kattalarga hurmat va kichiklarga izzat hayotimizda nimalarni o'zgartiradi deb o'ylaysiz

Xulosa. Rasmlar asosida dars o'tish — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol muloqotni ta'minlaydigan, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladigan muhim metodlardan biridir. U nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning tafakkur, nutq, diqqat va xotira qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bois ushbu usul zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilishi zarur.